

*O‘roqova Nafosat Yoriyevna,  
Buxoro davlat universiteti,  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
[n.y.uroqova@buxdu.uz](mailto:n.y.uroqova@buxdu.uz)*

## O‘ZBEK SHE’RIYATIDA KAPALAK OBRAZI TALQINI

**Annotatsiya:** maqolada badiiy asarlarda keng o‘rin egallab kelayotgan hayvonot olami vakillaridan biri – kapalak obrazi xususida so‘z boradi. Uning inson obrazini ochishda tutgan roli tavsifi keltiriladi. Ushbu obrazning genezisi, ilk ildizlari ifodalagan ma’no qirralari borasida fikr bildiriladi. Zamonaviy she’riyatda kapalak obrazining asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni, uning ahamiyati, ma’no qirralari, ramziy ifodalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy asar, inson obrazi, badiiy tafakkur tarzi, badiiy olam manzarasi, kapalak obrazi, folklor, zamonaviy o‘zbek she’riyati, Muhammad Yusuf

**Аннотация:** в статье говорится об образе бабочки, одного из представителей животного мира, как об образе занимающем широкое место в художественных произведениях. Приведена характеристика её роли в раскрытии образа человека. Высказано мнение о генезисе этого образа, аспектах смысла, выраженных его происхождением. Подробно рассмотрена роль образа бабочки в современной поэзии, её выделение в композиции произведения, её значение, смысловые аспекты и символические выражения.

**Ключевые слова:** произведение искусства, образ человека, художественный образ мышления, картина художественного мира, образ бабочки, фольклор, современная узбекская поэзия, Мухаммад Юсуф.

**Abstract:** The article talks about the image of a butterfly, one of the representatives of the animal world, which occupies a wide place in works of art. A description of its role in revealing the image of a person is given. An opinion has been expressed about the genesis of this image, the aspects of meaning expressed by its roots. In modern poetry, the role of the image of a butterfly in the composition of a work, its meaning, semantic aspects and symbolic expressions are highlighted.

**Keywords:** work of art, image of a person, artistic way of thinking, artistic picture of the world, image of a butterfly, folklore, modern Uzbek poetry, Muhammad Yusuf

**Kirish.** Badiiy asarlarda inson obrazini qatorida hayvonlar, hasharotlar, qushlar, o‘simliklar obrazini ham tez-tez uchratib turamiz. Ulardan inson shaxsini, uning ruhiy-ma’naviy dunyosini keng ifodalashda foydalaniladi. Hayvonot va

nabodot olamining asarga olib kirilishi shu asarning ta'sir imkoniyatlarini yanada oshiradi. Adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonov bu borada quyidagicha fikr bildiradi: "Badiiy-estetik tafakkurda keng qo'llanilayotgan ertak, afsona, mif va rivoyatlar ham bizni Olamni bilishga undaydi. Jonzotlaru (kiyik, bo'ri, tulki, qo'y-qo'zi va hokazo) hasharotlar (chumoli, kapalak, ninachi kabi)ning tilga kirishi, tog'-toshlaru dov-daraxtlar, turna ko'zli buloqlarning, barru bahrlarning so'zlashi Borliq bilan Yo'qlikni, Odamni anglatishga intilishdir. Bu xil Zikrdan maqsad Ollohni eslash, Olloh nomi bilan ko'ngillarni ziynatlashdir" [1, 3].

Demak, olamning badiiy manzarasini ifodalashda, uning mohiyatini anglashda, Yaratganning butun go'zalligini aks ettirishda, yagona Biru Borligini his ettirishda inson obrazidan tashqari hayvonot va nabodot olami birdek ishtirok etib keldi.

**Asosiy qism.** O'zbek she'riyatida qadimdan qo'llanib kelingan jilokor obrazlardan biri bu – kapalaklardir. Kapalaklar tabiatdagi eng go'zal hasharotlardan biri bo'lib, ular bilan duch kelgan har qanday odamda shubhasiz katta qiziqish uyg'otadi. Bu jajji jonzotlarga ko'pincha erkinlik va go'zallik ramzi sifatida qaralgan.

Kapalak obrazi genezisi ming yilliklarga borib taqaladi. Ko'pgina madaniyatlarda kapalaklar ruhiy olam va moddiy dunyo bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ba'zi e'tiqodlarga ko'ra, kapalaklar, ayniqsa oq kapalaklar olam va ruhiy borliq o'rtasidagi xabarchilardir. Shu nuqtai nazardan, oq kapalakni ko'rish marhum yaqinlarining tashrifi yoki xabari sifatida talqin qilingan. Bu jonzotlarni boshqa tarafga o'tganlarning ruhini o'zlari bilan olib yurishiga ishonilgan.

Ba'zi odamlar uchun oq kapalakni ko'rish tasalli va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki ular o'zlarini yaqinlaridan biri tashrif buyurayotgandek his qilishadi yoki keyingi hayotning belgisi sifatida yondashishadi. Bu biz yo'qotganlar bizni hech qachon butunlay tark etmasligini va ularning sevgisi va energiyasi bizni o'rab olishda davom etishini anglatadi, degan qarashlar mavjudligi ilmiy asosga ega.

Ba'zi folklor e'tiqodlarida oq kapalaklar ruhiy himoyachilar va yo'l boshchilar hisoblanadi. Bu mavjudotlar bizga kerak bo'lganda yordam berishi va chalkash paytlarda yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin, deb ishoniladi. Oq kapalakni ko'rish bizga ko'rinmas kuchlar tomonidan g'amxo'rlik va himoya qilinayotganimizni eslatish sifatida talqin qilinishi mumkin.

Kapalak obrazining ilk ildizlarini folklor asarlarida uchratamiz. Bolalar qo'shiqlari tarkibiga kiruvchi "Kapalak" qo'shig'ida kapalak obrazi shunchaki bir beg'ubor, go'zal jonzot ko'rinishida gavdalanadi:

Kapalagim kapalak,  
Buncha go'zal bo'lmasang.

Qanotlaring rang-barang  
Buncha maftun etmasang.  
Osmonda uchib yursang,  
Ko‘zlarim senda bo‘lar.  
Kapalagim kapalak,  
Mening qalbim shod aylar.  
Kapalagim kapalak,  
Kel birga biz o‘ynaylik.  
Sen uchgin men ortingdan  
Quvnoq bo‘lib chopayin.  
Kapalagim qanoting  
Qayrilmasin hechqachon  
Sening go‘zal surating  
Kitobimallaqachon.

Bolalar bu g‘aroyib ko‘rinishda bo‘lgan jonli xilqat bilan vaqt o‘tkazishni, u bilan quvlashmashoq o‘ynashni judayam xohlashadi. Qo‘shiq bola tilidan aytilgan bo‘lib, kapalakka murojaat tarzida maydonga kelgan. Bunda uning tashqi go‘zalligi, nafaqat bolalarni, balki har qanday insonni o‘ziga maftun aylovchi kuchli ruhiy jozibasi haqida so‘z boradi. Ammo bu ta’riflar barchasi bolalarga xos sodda uslubda ifodalanganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatiga nazar tashlar ekanmiz, unda namoyon bo‘ladigan obrazlar tarkibida ham kapalakka takror-takror duch kelamiz. Demak, bu obrazni qo‘llash an’anasi, ijodiy yondashuv yo‘sini hali o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Ayrim ijodkorlar lirikasida kapalakning ramz darajasiga ko‘tarilganiga guvoh bo‘lamiz. Buni O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’rlari misolida dalillash mumkin. Masalan, uning “Ishq kemasi” she’riy tizmasi tarkibiga kiruvchi “Sevgi bamisoli lolaqizg‘aldoq ...” misralari bilan boshlanuvchi she’rida kapalakning shunchaki bir hasharot emas, balki insonning do‘sti, hamrohi ko‘rinishidagi obrazi kitobxon ko‘z o‘ngida rostlanadi.

Sevgi bamisoli lolaqizg‘aldoq,  
Teginmay bo‘lmaydi,  
Tegsang to‘kilar.  
Alvon bir gumbazning o‘rtasi oppoq...  
Buni bir menu bir kapalak bilar.  
Men o‘sha gumbazga boshimni suqdim  
– Qizil ko‘ylakli bir qizgina kular.  
Bunday boqma menga: uqdingmi?  
Uqdim...  
Buni bir menu bir kapalak bilar [2,4].

She’rda hayotda mavjud go’zal uchlik birlashtirilgan. Zukko she’rxonning mohiyatni anglashi unchalik qiyinchilik tug’dirmaydi. Bular: sevgi, lolaqizg’aldoq va kapalak. Uchalasining ham umri uning maftuniga bog’liq. Tashqi tomondan go’zal, jon oluvchi. Bir qarashda sehrlovchi qudrati bor. Avaylabgina munosabat bildirmasangiz, bir zumda xazonga aylanadi. Misralarda svgi lolaqizg’aldoqq qiyoslanadi. “Alvon bir gumbazning o’rtasi oppoq...” – bu lolaqizg’aldoq. Ikkisi shu qadar jozibki, beixtiyor teginganingni bilmay qolasan, kishi. Ammo teginganimiz zahoti umri tugay boshlaydi. Lirik qahramonning bu holatni kapalak yaxshi angelaydi, deyishida ham bir ishora yashirin. Chunki kapalakning ham umri teginsangiz to’kilgulik qadar qisqa. Buning lirik asosini keyingi misrada ham ko’rish mumkin:

So’ng u oqqanotim uchdiyu ketdi,  
Uning umri bir kun – choshgohda o’lar.  
Momo Yer aylanib manzilga yetdi,  
Buni bir menu bir charxpalak bilar... [2, 4]

Darhaqiqat, shoir oqqanotining umri bir kun – choshgohga qadar. Momo Yer aylanib manzilga yetganda uning umri tugaydi. Buni tiyrak hisla shoir va charxpalak biladi. Charxpalak bu o’rinda taqdir, umr, dunyo, vaqt kabi birliklarni ifodalab kelgan.

Muhammad Yusufning “Ishq kemasi” she’riy to’plamidan o’rin olgan “Menday g’aribni ham ko’rolmaslar bor...” misralari bilan boshlanuvchi she’rda esa kapalak xokisor, birovga ozor bermaydigan, kamtar, kamsuqum insonlar obrazini gavalantirib kelgan:

Menday g’aribni ham ko’rolmaslar bor  
Nurab borarmanu o’zim shunday ham,  
Tugab borarmanu o’zim shunday ham,  
Ko’ksinga tosh otmay yurolmaslar bor...  
Tovushim chiqmas bir kapalakcha ham,  
Sadosiz kuzatgim kelar dunyoni.  
Ko’tarolmas hatto temir tokcha ham  
Ular qanotimga ortgan riyoni [2, 206].

Olamda kapalak kabi go’zal, va shu bilan bir qatorda beozor jonivor bo’lmasa kerak. Shoir shunga ishora qiliboq, “Tovushim chiqmas bir kapalakcha ham” deydi. O’zini dunyoni sassiz, sadosiz kuzatadigan, zarracha ovoz chiqarmaydigan g’arib kapalakka mengzaydi. Ya’ni, kimsaga teginmasdan, borligini oshkor qilishga urinmasadan, sado bermasdan yashayotgan lirik qahramon shu jajji xilqat kabi faqat go’zallikka oshno, birovga hech qachon yomonlikni ravo ko’rmaydi. Atrof-muhitdagilarga ozor berishni aslo xayoliga ham keltirmaydi. Taassufki, shu holatida ham uni yonidagilar tinch qo’yishmaydi, rohatni tuyishiga imkon berishmaydi. Ular kapalakning qanoti qadar nozik

qanotlariga ortgan riyo yukini, hatto, temir tokcha ham ko‘tarolmasligini lirik qahramon kuyinib so‘zlaydi.

Tunda she‘r aytishdik kapalak bilan,  
Yalpizni alqadim,  
Gulni alqadim.  
Yonimga sudralib kelib bir ilon  
Ko‘zoynak ostidan boqdi.  
Payqadim.  
Quvdi yolg‘iz o‘shal hamxonamni u.  
Quvdi parilarni quvgan kabi dev.  
Hurkitib yuborib parvonamni u  
Bo‘ynimga o‘ralib oldi:  
Meni sev!.. [3, 19-20]

“Erka kiyik” kitobidan olingan, “Tunda she‘r aytishdik kapalak bilan...” misralari bilan boshlanuvchi ushbu she‘riy parchada kapalak lirik qahramonning hamxonasi, mahbubi, hammaslagi tarzida suvratlanadi. Bu obrazga qarama-qarshi o‘laroq ilon obrazi esa she‘rda yomonlik istovchi, o‘zini majburan sevduruvchi inson ramzi sifatida ifodalangan. Bu ikki obrazning bir-biriga zid holatda qo‘yilishi kapalak obrazi mohiyatining ochilishida zamin hozirlagan. She‘r boshdan-oyoq ramzlarga asoslangan bo‘lib, she‘rxonlarning tafakkur olamini yanada boyitishini, ularning badiiy olam manzarasini anglashlarida badiiy bir vosita bo‘lishini ilmiy dalillarga tayanilgan holda izohlash mumkin.

**Xulosa.** Butun borliqni to‘laligicha anglash, tushunish, va albatta, uning izohini keltirish uchun badiiy asarlarda inson obrazi qatorida turuvchi vositalar bu – nabotot va hayvonot olami vakillaridir. Ularsiz biz hayotimizni to‘liq tasavvur etolmaymiz. Borliqda yuz berayotgan hodisalar va sinoatlar mohiyatini tuymoq uchun atrofimizda bizni o‘rab turgan tabiat, hayvonot va nabototni birlikda mukammallikda ko‘rmog‘imiz lozim. Badiiy asarlarda aks etgan hayvon va o‘simliklar inson obrazini mufassal yoritib berish uchun asosiy quroldir. O‘zbek she‘riyati misolida buning yorqin isbotini ko‘ramiz.

#### ADABIYOTLAR:

1. Rahimjonov N. Adabiyot – ma‘naviyat dasturxonini//Xalq so‘zi. – 3-iyun, 2021.
2. Yusuf M. Ishq kemasi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1996.
3. Yusuf. M. Erka kiyik. www.ziyouz.com kutubxonasi, 1992.
4. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. –Т.: Маънавият, 1998.
5. Ҳаққул И. Шеърят. Рухий муносабат. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.

6. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритм табиати. – Б.: Бухоро, 2002.
7. Саримсоқов Б.И. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Ўз ФАТАИ, 2004.
8. Ўроқова Н. Замонавий шеърлятда от образи талқини. // Бухоро давлат университети Илмий ахбороти, 2023. №7.
9. Uroкова N. THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY// SPECTRUM JOURNAL OF INNOVATION, REFORMS AND DEVELOPMENT, 2023. ISSN 2751-1731. JIF: 7.255. SJIF 2023: 5.853. 18-avgust.
10. Uroкова N. RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS// International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education POLAND, CONFERENCE <https://confrencea.org> AUGUST 20 th, 2023.